



“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA DO‘STLIK MOTIVI

Mehribonu Sayfullayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

mehribonusayfullayeva8@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodidagi do‘stlik motivining Abdulla Qodiriy romanidagi badiiy talqini haqida fikr yuritiladi. “Alpomish” dostonidagi Alpomish va Qorajon do‘stligi misol qilib olinadi. “Mehrobdan chayon” romanidagi Anvar, Nasim va Sultonali mirzo do‘stligi qiyosiy tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xalq og‘zaki ijodi, doston, motiv, roman, Anvar, Alpomish.*

O‘zbek adabiyotida do‘stlik motivi qadimdan muhim axloqiy-estetik tushuncha sifatida shakllanib kelgan bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham keng o‘rin egallaydi. Bu motiv orqali insonlar orasidagi samimiy munosabatlar, sadoqat, vafodorlik, halollik, mehr-oqibat va bir-biriga yelkadosh bo‘lish kabi qadriyatlar tarannum etiladi. Do‘stlik motivi xalq og‘zaki ijodining deyarli barcha janrlarida: qator ertaklar, matallar va dostonlarda uchraydi.

“Alpomish” dostonida esa Alpomish va Qorajon do‘stligi ushbu motivning eng ibratli namunalaridan biri hisoblanadi. Dostondan ma‘lumki, Qalmoq yurtiga yori Barchinoy uchun safarga otlangan Alpomish qalmoq alplaridan bo‘lmish Qorajon bilan do‘st tutinadi. Tushlari orqali do‘st tutinishlariga ishora beriladi: “Qorajon alp aytdi: – Men seni ko‘rganim yo‘q, sening bilan hamsuhbat bo‘lganim yo‘q, men ham xotiningga talashib yotgan to‘qson alpning biri bo‘laman. Qulf-u dilimni Xudo ochdi, musulmon bo‘ldim. Qirq chiltan bilan Rasul payg‘ambar qavm-u qarindoshingni tushimda ko‘rsatib sening bilan meni do‘st qildi. Ul sababdan bilaman. Alpomish aytdi: – Do‘st bo‘lgan bo‘lsang, esa yaqin bo‘p qolgan ekansan, tepaning ustiga chiqqin ko‘rishaylik...” [1; 89] Ushbu uchrashuvdan so‘ng Qorajon Alpomish bilan do‘st tutinadi. Sinovda o‘zi tug‘ishgan akalarining yonida turib emas, Alpomish tomonda turib davraga tushadi. Alpomishning do‘sti, sirdoshi, yaqin ko‘makchisiga aylanadi.

Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida ham ana shu an‘anani davom ettirib, do‘stlik motivini badiiy jihatdan chuqur va ta‘sirchan talqin etadi. Bu motiv romanning ikki o‘rnida ko‘zga tashlanadi. Birinchisi Anvar va Nasim do‘stligi bo‘lsa, keyingisi Anvar va Sultonali mirzo do‘stligidir. Asarda Nasim Anvarning maktabdosh sherigi, eng yaqin o‘rtog‘i, dardkashi va sirdoshi sifatida gavdalanadi. Ular o‘rtasidagi do‘stlik oddiy tanishlik yoki yuzaki yaqinlik emas, balki ichki ruhiy yaqinlikka asoslangan munosabatdir. Bolalik davriga xos beg‘uborlik, sodda ishonch va samimiylik ular do‘stligining asosiy belgilari sifatida namoyon bo‘ladi: “Nasim bilan Anvar juda yaqin do‘st, bir-birini onglag‘uchi sirdosh o‘rtoq edilar. Nasimning otasi



Qo'qonning'ina emas, butun xonliqning tanilg'an kishilaridan va bu ikki bolaning sinfiy ayirmaligi bilan ko'kcha, lekin yosh do'stlar buning farqiga yetmaslar, Nasim "xonning mirzaboshisining o'g'liman" deb havolanmag'andek, Anvar ham "Salim bo'yoqchining yatimi, Solih mahdumning asrandisiman" deb andisha qilmas edi. Bu ikki bola bir joyda suhbatga kirishsalar, chetdagi bir kishi Anvarni yirtiq bo'z kiyimlar Ichida va Nasimni shohi adraslar bilan g'arq holda ko'rib, albatta "bu gadoybachcha bilan bekbachchaning o'zaro nima munosabati bor" deb taajjublanar, lekin do'stlar hali buning ayirmasini idrok qilmaslar edi"[3; 53]. Anvar va Nasim o'rtasidagi do'stlikning yana bir muhim jihati — bu ularning o'zaro ruhiy yaqinligi. Nasim Anvarning ichki kechinmalarini tushunadigan, uning dardini tinglaydigan va unga hamdard bo'la oladigan yagona yaqin inson sifatida tasvirlanadi. Bu esa ularning munosabatini yanada chuqurlashtiradi va uni oddiy do'stlikdan ko'ra ma'naviy bog'liqlik darajasiga ko'taradi. Biroq mazkur do'stlik uzoq davom etmaydi. Nasim o'n besh yoshlar chamasida chechak kasali bilan og'rib vafot etishi bu samimiy munosabatning fojiali yakuniga olib keladi. Bu holat roman badiiy to'qimasida chuqur dramatismni yuzaga keltiradi. Folklor asarlarida ham ko'pincha do'stlik sinovlar orqali namoyon bo'ladi va ayrim hollarda fojiviy yakun bilan tugaydi. Bu esa do'stlikning qadrini yanada oshiradi va uning ma'naviy qiymatini kuchaytiradi. Nasimning vafoti Anvar ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. U do'stining o'limidan chuqur iztirob chekadi va unga atab marsiya yozadi:

Ochilmay so'lsa har gul g'unchasi piru juvon yig'lar,
Emas piru juvon, balki hamma ahli jahon yig'lar.
Nasimim ketdi olamdin meni qayg'u aro tashlab,
Ko'zimdin oqsa xun hech bir ajab yo'q, chunki qon yig'lar[3; 54].

Bu marsiya, garchi bolalik hissiyotlari va sodda ifodalardan iborat bo'lsa-da, unda chin yurakdan chiqqan dard, sog'inch va iztirob mujassam. Marsiyaning Nasimning otasiga ko'rsatgan ta'siri esa alohida e'tiborga loyiq. Otaning farzandiga bo'lgan muhabbati va iztirobi Anvarning sodda, ammo samimiy satrlarida o'z aksini topadi. Natijada mulla Muhammad Rajabbek poygachi marsiyadan ikki misrani Nasimning qabr toshiga yozdiradi. Anvarga o'z otaligini ko'rsatadi, hisob ilmini o'rgatib, o'rda xizmatiga oladi. Nasim bilan do'stligi ortidan Anvar xon o'rdasiga kirib, mirzolik qila boshlaydi. Yozuvchi do'stlik motividan asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtiruvchi muhim badiiy vosita sifatida foydalanadi. Mazkur Nasim epizodi roman badiiy tizimida bir nechta muhim funksiyani bajaradi. Birinchidan, u Anvar obrazining nozik qalb egasi, samimiy va vafodor inson ekanini ochib beradi. Ikkinchidan, do'stlik motivining chuqur ma'naviy mohiyatini yoritadi. Uchinchidan, Anvarning ma'lum kasbni egallab, o'z o'rnini topishida va mustaqil bo'lishida turtki bo'ladi. "Mehrobdan chayon" romanida Anvar va Nasim o'rtasidagi do'stlik motivi bolalik beg'uborligi, samimiylik va sadoqat asosida badiiy talqin etilgan. Bu do'stlikning fojiviy yakuni esa uning ma'naviy qiymatini yanada oshiradi



Abdulla Qodiriyning bu romanida do'stlik motivi turli bosqich va sharoitlarda shakllangan munosabatlar orqali ochib beriladi. Agar Anvar va Nasim o'rtasidagi do'stlik bolalik beg'uborligi va samimiylikka asoslangan bo'lsa, Anvar va Sultonali o'rtasidagi munosabatlar hayotiy tajriba, sinov va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllangan yetuk do'stlik namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Sultonali Anvarning xon o'rdasida mirzolik faoliyatini boshlagan vaqtidagi do'sti sifatida tasvirlanadi. Bu jihat ularning do'stligini bolalikdagi tabiiy yaqinlikdan farqli ravishda, hayot sinovlari jarayonida vujudga kelgan ongli va mustahkam munosabat sifatida ko'rsatadi. Demak, bu do'stlik nafaqat hissiy yaqinlik, balki ijtimoiy sharoit va umumiy maqsadlar asosida shakllangan.

Sultonali obrazi roman badiiy tizimida sodiq, fidoyi va ishonchli do'st timsoli sifatida gavdalanadi. U Anvarni doimo o'ylaydigan, uning manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan inson sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, Sultonali xarakterida do'stga sadoqat, vafodorlik va fidoyilik kabi fazilatlar alohida ajralib turadi. U har qanday vaziyatda Anvarni qo'llab-quvvatlashga, unga yordam berishga tayyor turadi.

Bu jihat xalq og'zaki ijodidagi sodiq safdosh yoki yordamchi qahramon obrazlarini eslatadi. Folklor asarlarida bosh qahramon yonida unga har qanday sinovda hamroh bo'ladigan, zarur paytda jonini ham ayamaydigan sodiq do'st obrazi uchraydi. Bunday qahramonlar ko'pincha asosiy qahramonning muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o'ynaydi. Sultonali obrazi ham aynan ana shunday tipologik xususiyatlarga ega.

Sultonali va Anvar o'rtasidagi do'stlikning eng muhim jihatlaridan biri bu sadoqatning eng yuqori darajada namoyon bo'lishidir. Sultonali do'sti uchun nafaqat moddiy manfaatlardan, balki o'z kasbidan, hatto jonidan kechishga ham tayyor ekanligi bilan ajralib turadi. Bu esa uning do'stlikka bo'lgan munosabatini oddiy ijtimoiy aloqadan ko'ra yuksak ma'naviy qadriyat darajasiga ko'taradi.

Mazkur holat folklor an'alaridagi fidoyi do'st obrazlari bilan bevosita uyg'unlik kasb etadi. Xalq dostonlarida qahramonning sodiq do'sti ko'pincha uning uchun o'z hayotini xavf ostiga qo'yadi, turli sinovlardan o'tadi va do'stlikka sodiqligini amalda isbotlaydi. "Alpomish" dostonidagi Alpomish va Qorajon do'stligini yodga olaylik. Sultonali obrazi ham ana shu an'anaviy qahramonlar tipiga yaqin turadi. Uning harakatlari orqali do'stlikning haqiqiy mohiyati – sadoqat va fidoyilik ekani ochib beriladi. Sultonali obrazida insoniy samimiyat va ichki poklik ham muhim o'rin tutadi. U do'stga nisbatan hech qanday yashirin niyat yoki manfaat ko'zlamaydi. Bu esa uning xarakterini yanada yuksak axloqiy darajaga ko'taradi. Bir so'z bilan aytganda, "Mehrobdan chayon" romanida Anvar va Sultonali o'rtasidagi do'stlik hayotiy sinovlar asosida shakllangan, sadoqat va fidoyilik bilan mustahkamlangan yetuk do'stlik namunasi sifatida tasvirlangan. Sultonali obrazi orqali yozuvchi do'stlikning eng oliy ko'rinishini – do'st uchun o'z manfaatidan, hatto hayotidan ham kecha olish darajasidagi sadoqatni badiiy jihatdan ifodalagan.



Bir so'z bilan aytganda, Abdulla Qodiriy romanlarining asosiy mavzu va g'oyasini to'ldirishda xalq og'zaki ijodiyotiga xos bo'lgan do'stlik motivi imkoniyatlaridan o'rinli foydalanib, bebaho asarlar yaratishga muvaffaq bo'ldi. Abdulla Qodiriy har ikkala romanida do'stlik motividan xalq og'zaki ijodiga xos badiiy tafakkur asosida foydalanib, ularni realistik syujet qurilishiga muvaffaqiyatli singdirgan. Natijada motiv asarning nafaqat mazmuniy, balki kompozitsion yaxlitligini ta'minlovchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alpomish(o'zbek xalq qahramonlik dostoni). – T.: Zabarjad Media, 2024.
2. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – T.: Sharq, 2005
3. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon: Roman / “Asr oshgan asarlar” turkumi/ – T.: “Sharq”, 2005.
4. Olim To'laboyev va boshqalar. XX asr O'zbek folklorshunosligi. Antologiya. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
5. Omonilla Madayev, Tojixon Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi.-T.: Sharq, 2010.